

MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Xo'jalik bo'limi tomonidan 2025–2026 yillarda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Xo'jalik bo'limi Akademiyaning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, binolar va inshootlarni saqlash, ta'mirlash, qulay mehnat va ta'lim muhitini yaratish, sanitariya-gigiena holatini ta'minlash hamda xalqaro va respublika miqyosidagi tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etishga xo'jalik jihatdan ko'maklashish bo'yicha tizimli ishlar olib bordi. Mazkur ishlar Xo'jalik bo'limi to'g'risidagi Nizomda belgilangan vazifalarga muvofiq amalga oshirildi.

2025–2026 yillar davomida Akademiya binosi va hududini zamonaviy talablar asosida saqlash, ta'lim jarayoni uchun munosib shart-sharoitlar yaratish hamda tinglovchilar, professor-o'qituvchilar va xodimlar uchun qulay muhitni ta'minlash maqsadida bir qator amaliy ishlar bajarildi.

Avvalo, Akademiyaning asosiy binosi va hovlisida joriy ta'mirlash, obodonlashtirish va estetik ko'rinishni yaxshilash ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Binoning ichki va tashqi qismlarida ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ayrim xonalarda devor va shiftlarni yangilash, bo'yash, pol qoplamalarini tartibga keltirish, eshik va derazalarni ta'mirlash ishlari bajarildi. Akademiya hududida sanitariya holatini yaxshilash, yashil hududlarni saqlash, hovlini tozalikda ushlab va tashqi estetik ko'rinishni ta'minlash bo'yicha muntazam ishlar tashkil etildi.

Shuningdek, Akademiyaga ajratilgan 4-qavatdagi xizmat xonalari, o'quv auditoriyalari va boshqa foydalanish xonalarini ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Xonalar zamonaviy ta'lim talablari asosida foydalanishga tayyorlanib, ularning ichki muhitini yaxshilash, yorug'lik tizimini tartibga keltirish, elektr ta'minotini yaxshilash, xonalarni qulay va funksional holatga keltirish choralari ko'rildi. Auditoriyalarda ta'lim jarayonini tashkil etish uchun zarur muhitni shakllantirishga alohida ahamiyat berildi.

Ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish maqsadida o'quv auditoriyalari va xizmat xonalarini mebel va jihozlar bilan ta'minlash ishlari amalga oshirildi. Jumladan, auditoriyalarga zamonaviy o'quv mebellari, stol-stullar, shkaflar, yig'ilish va ish xonalari uchun xizmat mebellari bosqichma-bosqich joylashtirildi. Mavjud mebel va inventarlarni ta'mirlash, ulardan samarali va tejimli foydalanish, moddiy qimmatliklarni saqlash va hisobini yuritish ishlariga ham alohida e'tibor qaratildi.

2025–2026 yillarda Akademiya binolarida sanitariya-gigiena holatini yaxshilash maqsadida sanuzellarni ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Xususan, sanitariya xonalarida ta'mirlash, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini tartibga keltirish, zarur sanitariya jihozlarini o'rnatish, tozalik vositalari bilan ta'minlash

ishlari olib borildi. Bu esa Akademiya xodimlari, tinglovchilari va mehmonlari uchun munosib sanitariya sharoitlarini yaratishga xizmat qildi.

Akademiya o'tkazilgan respublika va xalqaro tadbirlarni tashkil etishda Xo'jalik bo'limi tomonidan amaliy yordam ko'rsatildi. Jumladan, xalqaro forumlar, davra suhbatlari, seminarlar, konferensiyalar va xorijiy mehmonlar ishtirokidagi uchrashuvlar uchun auditoriyalar va yig'ilish xonalarini tayyorlash, zarur texnik va tashkiliy sharoitlarni yaratish, mehmonlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini xo'jalik jihatdan ta'minlash ishlari amalga oshirildi. Tadbirlar davomida ichimlik suvi, salfetka, qog'oz mahsulotlari, kanstovarlar va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlash ishlari tizimli tashkil qilindi. Bu esa tadbirlarning yuqori saviyada va tashkiliy jihatdan puxta o'tishiga munosib hissa qo'shdi.

Bundan tashqari, Akademiya elektr energiyasi, suv ta'minoti, isitish va kanalizatsiya tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, nosozliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish, mehnat muhofazasi va xavfsizlik choralarini ta'minlash bo'yicha doimiy ishlar amalga oshirildi. Yoqilg'i-energiya resurslaridan tejimli foydalanish, moddiy resurslarni maqsadli sarflash, xizmat xonalari va umumiy foydalanish joylarida tozalik va tartibni saqlash bo'yicha tizimli nazorat o'rnatildi.

Xo'jalik bo'limi tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida Akademiya ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, professor-o'qituvchilar, tinglovchilar va xodimlar uchun munosib mehnat va ta'lim muhitini yaratish, xalqaro hamkorlik tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazish uchun zarur moddiy-texnika va tashkiliy shart-sharoitlarni ta'minlashga erishildi.

Kelgusida ham Akademiyaning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, binolar va auditoriyalarni modernizatsiya qilish, energiya tejimkor va raqamli boshqaruv yechimlarini joriy etish, sanitariya va estetik muhitni yanada yaxshilash, xalqaro tadbirlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha ishlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

Xo'jalik ishlari mudiri
2026 yil 23 may

X.Abdunazarov